

QADIMGI TURKIY LUG‘ATLARDA QUSHLAR NOMLARINING QO‘LLANILISHI

Usmonova Muxlisa

Obilova Xosiyat

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda Xolmurzayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada qush nomlarining qadimgi turkiy lug‘atlarda qanday so‘zlar bilan izohlanganligi va barcha lug‘atlarda turlicha atamalar bilan berilganligi izohlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qushlar nomlari, qadimgi turkiy lug‘atlar, qush leksemasi, leksik tahlil, qiyosiy tahlil, “Devonu lug‘atit turk”, “At tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya”, “Kelurnoma”.

Qadimgi turkiy lug‘atlarda qush nomlarining turlicha atalishini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi lug‘atlar “Devonu lug‘atit turk” I-II-III–tomlari, “At tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya” lug‘ati, “Kelurnoma”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” hamda “Древнетюркская словарь” kabi lug‘atlarda keltirilgan qushlar nomlarining farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Umumiy bir “chumchuq” leksemasini oladigan bo‘lsak, bu so‘zning yuqorida keltirilgan lug‘atlarning barchasida farqli, ya‘ni umuman boshqa leksemalar bilan atalishini ko‘rish mumkin. Masalan, “Devonu lug‘atit turk” I-tomida “chumchuq” leksemasi “кушҗар” shaklida kelgan bo‘lsa, “Devonu lug‘atit turk” II-tomida bu leksemaning boshqa nom bilan atalishini uchratmaymiz.”Devonu lug‘atit turk” III-tomida esa “chumchuq” leksemasi bir emas bir nechta ma‘nolarda, ya‘ni, “чанчурҗа”, “сэча” kabi nomlar bilan atalgan. “At tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya” lug‘atida шірша – chumchuq (turkmancha) (25a–10) shaklida, “Kelurnoma” da чумчуг – chumchuq(33613) shaklida uchraydi.”Muhokamat ul-lug‘atayn” hamda “Kelurnoma” kabi lug‘atlarda “chumchuq” leksemasining boshqa nom bilan atalganligini uchratmaymiz.

Endi “qush” leksemasining o‘zini oladigan bo‘lsak, bu so‘z ham qadimgi turkiy lug‘atlarda bir necha ma‘nolarda qo‘llanilgan. Masalan, bu leksema birgina “At tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya”da quyidagicha ma‘nolarda keltirilgan: бадәнә – qush(19a–13); йтлақаз – qush (46–7); қутан – qush(76–12); төвлүғар – qush (136–6); кїзғаш – qush (296–8); кїрғї – qush (76–2); тїлқуш – qush (296–9); үвғәнк – qush (39a–7) kabi. “Devonu lug‘atit turk” da, қуш – qush (Jamlikni bildiradigan turdosh ot) (319); “Kelurnoma” da, қуш – qush (336); “Muhokamat ul-lug‘atayn”da, туюр – qushlar (48); “Древнетюркская словарь” da esa QÜS – qush (МК I 439) ma‘nolarida kelgan.

“Древнетюркская словарь” da qush leksemasining ma’nosi berilib, bir necha qush turlarining ma’nolari ham keltirib o‘tilgan. Bular: quš quzyun, quš sangi, boz quš, jun quš, ürüng quš, qara quš, qil quš, qiz quš, tevä quš, turujaja quš kabilar. Bundan tashqari bu lug‘atda boshqa qushlar nomlari ham keltirilib, ma’nolari bilan izohlangan va ular quyidagilar: SAĞIZĞAN – hakka, zag‘izg‘on (MK I 518); SUČULUN – tog‘an qush (MK II 92); TURNA – turna (MK III 239); XARĞA –qarg‘a va boshqa qush nomlari keltiriladi.

“Lochin” qushi ham qadimgi turkiy lug‘atlarida turlicha ma’nolarda kelgan. “Devonu lug‘atit turk” I - tomida bu qush nomining bir necha ma’nolarini ko‘rish mumkin: лачин – lochin (bu yirtqich qushlardir) (388); чағри – lochin (397); чафли – lochin (405) kabi.”At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya” lug‘atida esa “lochin” qush nomi туған - lochin (18a–20); лăчн – lochin (20б–11) kabi ma’nolarda, “Kelurnoma”da esa лачын – lochin ma’nosida kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turkiy lug‘atlarda qush leksemasi va qush nomlari turlicha ma’nolarda keltirilgan. Qushlarning turlari ham boshqa-boshqa ma’nolarda qo‘llanilgan. Yuqorida keltirilgan lug‘atlardan turkiy lug‘atlarning so‘zligi boy bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘atit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili)haqida noyob tuhfa) – Toshkent: Fan, 1968.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn (Ikki til muhokamasi).
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni) – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
4. Древнетюркская словарь. – Ленинград: Издательство “наука” ленинградское отделение, 1969.
5. Muhammad Yoqub Chingiy. Kelurnoma (Kelur – name) – Toshkent: Fan, 1982.